

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizim tashkilotlarining ishlab chiqarish faoliyati to'g'risida

MA'LUMOT

(2023 yil yanvar-dekabr)

Standartlar va o'lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat nazorati sohasida

2023 yil davomida **172 ta** sub'ektlarda (import, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish) davlat nazorati o'tkazildi. Natijada, tekshirilgan **285 tur**dagi mahsulotdan **242 tur**dagi mahsulotlar texnik reglament talablariga nomuvofiqligi, **5379 ta** o'lchash vositalari va sinov uskunalardan **3035 tasi** (**56,4 %**) qiyoslanmagan holda foydalanilganligi aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan **187 nafar** mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi.

Shuningdek, **5663 ta** korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan holda **3850 ta** tadbirkorlik subektlariga sohaga oid qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish bo'yicha ko'rsatma xatlar va tarqatma materiallar yuborildi.

Respublikamiz xududida faoliyat yuritayotgan **1813 ta** korxonada tadbirkorlar uchun soha yuzasidan seminar o'tkazildi. Seminarda xalqaro talablarni joriy etish, eksport qilish istiqbollari, mahsulotlarni sifatini oshirish va sifatsiz mahsulotlar bilan kurash yo'nalishlarida qilingan ishlar va yangiliklar, yaratilgan qulaylik tushuntirildi.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishida qonunchilik talablarini buzilishi va ularning kelib chiqish sababalari o'rganish maqsadida **41 ta** akkreditlangan muvofiqlikni baholash idoralari tomonidan rasmiylashtirilgan **360 ta** xujjatlar to'plami taxlil qilindi. Natijada, **336 ta** xolatda **nomuvofiqliklar** aniqlandi. Aniqlangan holatlar yuzasidan **41 ta** akkreditlangan muvofiqlikni baholash idoralariga yozma ko'rsatma chiqarildi, **3 ta** muvofiqlikni baholash idoralari tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilish holatlari bo'yicha materiallar O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasiga yuborildi.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan tashkil etilgan **145 ta** nazorat tadbirlarida departament xodimlarining mutaxassis sifatida ishtiroki ta'minlandi. Jumladan, prokuratura organlari tomonidan tashkil etilgan **114 ta**, davlat xavfsizlik xizmati tomonidan tashkil etilgan **8 ta**, Agroinspektsiya tomonidan tashkil etilgan **8 ta** va boshqa organlar

tomonidan tashkil etilgan **15 ta** nazorat tadbirlarida davlat nazorati departamenti xodimlari ishtirok etishdi.

Ushbu nazorat tadbirlari davomida **234 turdagi** maxsulotlar muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirilmasdan realizatsiya qilinganligi, **1763 ta** o'lchash vositalari davlat qiyoslash ko'rigidan o'tkazilmasdan foydalanib kelinayotganligi, **67 ta** xolatda standart talablari buzilganligi aniqlandi.

O'lchashlar yagonaligini ta'minlash sohasida.

2023 yil yanvar-dekabr holatiga **640 767 dona** o'lchash vositalari (*shulardan **1 399 dona** o'lchash vositasi yaroqsiz deb topilgan*) metrologik tekshiruvdan o'tkazilgan.

Ko'rsatilgan metrologik xizmatlardan **574 347 dona** qiyoslash, **66 420 dona** attestatsiya va **23 877 dona** kalibrlash ishlarini tashkil etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning **139 238 ta** murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalari (*hisoblagichlarni*) qiyoslash ishlari amalga oshirilgan. O'lchash vositalarining metrologik tekshiruvi natijalari va tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha **189 dona** sertifikatlar rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, turini tasdiqlash maqsadida **54 turdagi** o'lchash vositalari davlat sinovlaridan o'tkazilgan.

Muvofiqlikni baholash sohasida.

O'zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida 2023 yil yanvar-dekabr oylarida **186 587 ta** muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan, shundan **1 101 ta** muvofiqlik sertifikati **1 kalendar** yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirilgan, seriyali ishlab chiqarishga **6 501 ta** muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizim tashkiloti "**UzTest**" DM tomonidan **38 545 ta** muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan, shundan **179 ta** muvofiqlik sertifikati **1 kalendar** yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirilgan, **2 285 ta** tadbirkorlik sub'ektlariga seriyali ishlab chiqarishga sertifikatlar rasmiylashtirib berilgan.

Menejment tizimlarini joriy etish sohasida.

2023 yil yanvar-dekabr holatiga **1261 ta** korxonada sifat menejment tizimlari bo'yicha **2764 ta** sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan: sifat menejment tizimlari (**ISO 9001**) bo'yicha **1082 ta**;

ekologik menejment tizimlari bo'yicha (**ISO 14001**) **806 ta**; oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari (**ISO 22000**) bo'yicha **32 ta**; energetik menejment tizimlari (**ISO 50001**) **19 ta**; kasb-hunar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik menejment (**ISO 45001**) bo'yicha **816 ta** va boshqa **9 ta** menejment tizimlari.

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish **24 ta** akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi **98 ta** korxonada "**OEKO-TEX**" xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish.

Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish yuzasidan korxonalarga **1480 ta**, shundan standartlashtirish – **346 ta**, metrologiya – **192 ta**, sertifikatlashtirish – **347ta**, sifat menejment tizimlari masalalari – **396 ta**, qadoqlash va yorliqlash – **63 ta** va boshqa masalalarda **128 ta** konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

98 marotaba seminar-treninglar, mahalliy gazetalarda **110 ta** maqolalar chop etildi va **49 marotaba** radio va **TV**da chiqishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda, hududlarda joylashgan **188 ta** tumandagi **1347 ta** korxonalarining **280 dan ortiq** mahsulotlarini dunyoning **40 ta** mamlakatlariga **eksport** qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.